SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV MADIYAR DANIYAR O‘G‘LI

O‘QUVCHILARNING IQTISODIY GEOGRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (10-sinf misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 372.891:911.3

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Abdullayev Madiyar Daniyar o‘g‘li
O‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi
(10-sinf misolida)..... 3

Абдуллаев Мадияр Данияр угли
Методика развития экономико географической компетентности учащихся
(на примере 10 класса) 23

Abdullaev Madiyar Daniyar ogli
Methodology for developing economic geographic competence of students
(based on 10th grade)..... 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 52

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDULLAYEV MADIYAR DANIYAR O‘G‘LI

O‘QUVCHILARNING IQTISODIY GEOGRAFIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI (10-sinf misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Ped6981 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rajabov Furqat Turakulovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Komilova Nilufar Qarshiboyevna** geografiya fanlari doktori (DSc), professor
	Amonov Xolmuxammad Normurotovich pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Gr.09.11 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 4-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy. Tel: (0366) 239-16-36, faks: (0366) 239-19-36; E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (104-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahar, Universitet xiyoboni, 15-uy, Tel: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 23-oktabr kuni tarqatildi
(2026-yil 9-oktabrdagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

S.B. Abbasov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, geografiya
fanlari doktori, professor

B.A. Meliyev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, geografiya
fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

L.Z. Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ta’lim tizimining jadal rivojlanishi o‘quvchilarning fanga oid kompetentligini shakllantirishni zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi. Ayniqsa, iqtisodiy geografiya fani o‘quvchilarda hududiy iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, mintaqaviy tafovutlarni anglash va global muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining o‘quv jarayoniga integratsiyasi geografiya ta’limini yanada samarali, qiziqarli bo‘lishi va amaliy ahamiyatini oshirishning asosiy sharti sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki real hayotiy vaziyatlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Dunyoda geografiya ta’limini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ulardan “National Geographic” tashkilotining “National Geographic Education Programs”[1] (Milliy geografik ta’lim dasturlari) va “Geography for Life: National Geography”[2] (Hayot uchun geografiya: Milliy geografiya) nashrining standartlari alohida o‘rin tutadi. Ushbu dasturlar o‘quvchilarning geografik bilimlarini rivojlantirish, global masalalarni tushunish hamda atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishni maqsad qiladi. Bu dasturlar doirasida jahonning ko‘plab tadqiqot markazlarida o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish borasida salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar geografiya ta’limini modernizatsiya qilish, uning mazmuni va metodikasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan. Fan va texnologiyalar sohasidagi jadal o‘zgarishlar geografiya ta’limiga ilg‘or yondashuvlarni tatbiq etish va o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Maktab iqtisodiy geografiya kursi o‘quvchilarga jahon iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarini idrok etish, tahliliy tafakkur va hayotiy kompetentliklarni rivojlantirishda asosiy o‘rin egallaydi. Xususan, 10-sinf “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani o‘quvchini davlatlar iqtisodiy salohiyatini baholay olishga, xalqaro mehnat taqsimotini bilishga va global muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishga tayyorlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, faol metodlar va elektron ta’lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish o‘quvchilarda nazariy va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Bunday yondashuv muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmasi hamda zamonaviy jamiyatda zarur bo‘lgan iqtisodiy geografik kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi, 2020 yil 5

[1]National Geographic Education Programs. National Geographic Partners, LLC. https://www.nationalgeographic.org/education.

[2] Susan Heffron, Roger M. Downs. Geography for Life: National Geography Standards, second edition. Geography Education National Implementation Project (GENIP), Washington. 2012, -122. https://ncge.org/wp-content/uploads/2021/06/Geography_for_Life_2ndEd.pdf

oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmonlari, shuningdek, 2019 yil 26 noyabrdagi PQ-4537-sonli “Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963-sonli “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2020 yil 27 fevraldagi PQ-4623-sonli “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlarida berilgan vazifalar ijrosini ta’minlashga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston hamda xorijiy mamlakatlar olimlari pedagogik texnologiyalar, pedagogik kompetentlik va geografiya ta’limi metodikasi sohalarida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Jumladan, xorij olimlaridan D.Lambert, S.Bednarz, M.Biddulph, S.Tanilarning ilmiy tadqiqotlarida geografiyani o‘qitish masalalari aks ettirilgan.

MDH olimlaridan A.V.Darinskiy, V.P.Maksakovskiy, E.A.Tamojnyaya, S.G.Kalkashev, B.Sh.Abdimanapovlarning ilmiy ishlarida geografiya ta’limi muammolari yoritilgan.

Mamlakatimizda pedagogik texnologiyalar va pedagogik kompetentlik yo‘nalishida N.N.Azizxo‘jayeva, O‘.Tolipov, N.Saidahmedov, R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Xoliqov, J.Yo‘ldoshevlarning ilmiy izlanishlari nazariy-metodik asos sifatida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda geografiya o‘qitish metodikasi va geografiya darsliklarini ishlab chiqish yo‘nalishi bo‘yicha H.Hasanov, P.Baratov, P.G‘ulomov, H.Vahobov, A.Qayumovlar tadqiqot olib borgan. Geografiya ta’limi metodikasi yo‘nalishida esa O.Mo‘minov, P.Musayev, H.Ubaydullayev, S.Abduvoxidov, R.Qurbonniyozov, M.Abdurahmonov, U.Safarov, S.Matsaidova, M.Qo‘ldasheva, B.Abduraxmonov, F.Saydamatov, F.Rajabov, X.Amonov, H.Shodiyev, D.Abdullayeva, F.Xamroyeva, A.Janzakov, O‘.Ibragimov, S.Haydarova, O.Abdimurotov, M.Xoliqova, G.Shodiyeva, M.Tojiboyevalar olib borishgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tomonidan salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda geografiya fanini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslari, didaktik jihatlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalari hamda o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini takomillashtirish muammolari o‘z aksini topgan. Tadqiqotlar tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o‘qitish, xaritalar bilan ishlash, o‘lkashunoslik materiallaridan foydalanish kabilarga e’tibor qaratilgan. Ta’kidlash joizki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, 10-sinf iqtisodiy geografiya kursi doirasida o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi maxsus, yaxlit va tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Jumladan, kompetentlikning tuzilmasi, uni

shakllantirishning metodik mexanizmlari, pedagogik texnologiyalar va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish imkoniyatlari alohida tadqiq etilmagan. Shu bois ushbu muammoni ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetida "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot dasturi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflarida "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijiy davlatlar va mamlakatimizda geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarni tizimli tahlil qilish va mavjud holatni aniqlash;

o'quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

o'quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

iqtisodiy geografiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik modelni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish jarayoni belgilandi. Tajriba-sinov ishlariga Andijon, Toshkent va Jizzax viloyatlaridagi umumiy o'rta ta'lim muassasalaridan 353 nafar o'quvchi jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy geografiya ("Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi") fanini o'qitishda foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning mazmun, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test, pedagogik tajriba-sinov va olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish hamda grafik ko'rinishda ifodalash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xorijiy davlatlar va mamlakatimizda geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mazmuniy, metodik, texnologik va kompetensiyaviy yo'nalishlari qiyosiy-tizimli tahlil qilinib, o'quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash, pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash hamda kompetentlik natijalarini baholashni yagona metodik tizimda ta'minlash zarurati ilmiy-metodik jihatdan aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 4K va 5E ta'lim modellarini "Yandex Maps" hamda

“Google Earth” raqamli vositalari bilan integratsiyalash orqali iqtisodiy geografik jarayonlarni hududiy tahlil qilish, xarita va statistik ma’lumotlarni qiyosiy talqin etish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, muammoli vaziyatlarga ilmiy asoslangan yechim ishlab chiqish hamda mustaqil izlanish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asosida aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi “Iqtisodiy zanjir” ta’limiy o‘yini orqali jahon xo‘jaligi tarmoqlari, mamlakatlar va mahsulotlar o‘rtasidagi iqtisodiy geografik bog‘liqliklarni aniqlash, “Mega-shahar arxitektori” o‘yini vositasida urbanizatsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarini cheklangan resurslar sharoitida tahlil qilish hamda optimal yechimlarni ishlab chiqish, “LearningApps” va “Wordwall” platformalari asosida esa interaktiv topshiriqlar, noan’anaviy testlar va tezkor mustahkamlash faoliyatini tashkil etish orqali bilish, amaliy va munosabat komponentlarini kompleks rivojlantirish asosida takomillashtirilgan;

iqtisodiy geografiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik model maqsadli, mazmunli, tashkiliy-jarayonli va natijaviy-baholash komponentlarini bilish, amaliy hamda munosabat kompetensiyalari bilan funksional bog‘lash, 4K va 5E modellarini pedagogik texnologiyalar, ta’limiy o‘yinlar, raqamli xaritalar va noan’anaviy baholash vositalari bilan integratsiyalash hamda vaziyatli masalalar, loyihaviy topshiriqlar va refleksiv qayta aloqa orqali o‘quvchining iqtisodiy geografik tafakkuri rivojlanishini izchil monitoring qilish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quydagilardan iborat:

o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini aniqlash va baholash mezonlari ishlab chiqilgan, taklif etilgan metodikani umumiy o‘rta ta’lim amaliyotida qo‘llashga mo‘ljallangan dars ishlanmalari, loyiha ishlari, amaliy va ijodiy topshiriqlar to‘plamlari hamda ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlangan;

10-sinf darsligi mazmuni asosida mavzular bo‘yicha bilimlarni nazorat qilish vositalarini o‘zida mujassamlashtirgan, o‘quvchilarning iqtisodiy geografik bilim, ko‘nikma va kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi “Geografiya 10” multimediali mobil ilovasi ishlab chiqilgan;

geografiya ta’limi sifatini oshirish, o‘quvchilarning fanga oid bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘qituvchilarni zamonaviy elektron ta’lim resurslari bilan ta’minlashga xizmat qiluvchi “Geograf.uz” ta’limiy veb-sayti va dasturiy ta’minoti yaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining № DGU 22800-sonli guvohnomasi, 2023-yil);

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining mavzulari bo‘yicha “LearningApps” va “Wordwall” platformalarida interaktiv topshiriqlar, noan’anaviy testlar va ta’limiy o‘yinlar (“Iqtisodiy zanjir” va “Mega-shahar arxitektori”) ishlab chiqilgan.

geografiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion o‘qitish modellari hamda raqamli

ta’lim resurslaridan samarali foydalanish metodikasini yorituvchi “Geografiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan metod, usul, vositalarning ilmiy jihatdan asoslanganligi, ma’lumotlarning rasmiy, ishonchli manbalardan olinganligi, pedagogika hamda geografiya ta’limi sohasidagi yetakchi olimlar, metodistlar, amaliyotchi o‘qituvchilarning ilmiy-amaliy tajribalariga tayanilganligi, olingan tahlillar, tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida isbotlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning maktab amaliyotiga joriy etilganligi hamda natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtisodiy geografiya fanini o‘qitish nazariyasi va metodikasining takomillashtirilganligi, “iqtisodiy geografik kompetentlik” va “iqtisodiy geografik tafakkur” tushunchalarining ilmiy ta’riflanib, tarkibiy qismlari tizimli asoslab berilganligi, o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishda 4K va 5E modellarini integratsiyalash, geografik o‘yinlar va raqamli vositalardan foydalanishning o‘quv-metodik ta’minoti ishlab chiqilganligi hamda samarali metodik model yaratilganligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan metodika, o‘quv-metodik ta’minot (o‘quv qo‘llanma, metodik tavsiyalar, elektron topshiriqlar majmuasi, namunaviy dars ishlanmalari), mobil ilova va ta’limiy veb-sayti iqtisodiy geografiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishga bevosita xizmat qilishi, shuningdek, tadqiqot natijalarining umumiy o‘rta ta’lim maktablarining geografiya o‘qituvchilari, geografiya yo‘nalishi talabalari va o‘qituvchilarning malaka oshirish kurslarida keng qo‘llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha olingan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

xorijiy davlatlar va mamlakatimizda geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning mazmuniy, metodik, texnologik va kompetensiyaviy yo‘nalishlari qiyosiy-tizimli tahlil qilinib, ilmiy-metodik jihatdan aniqlashtirilgan o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash, pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash hamda kompetentlik natijalarini baholashni yagona metodik tizimda ta’minlash zaruratiga doir taklif va tavsiyalar “Geografiyani o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug‘i asosida berilgan 314-200-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, geografiya darslarida raqamli resurslardan kompleks foydalanish metodikasi takomillashtirilgan, 4K va 5E o‘quv modellari iqtisodiy geografiya ta’limiga integratsiya qilingan, “Geografiya 10” mobil ilovasi hamda Geograf.uz veb-sayti orqali dars sifati va o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini oshirishga erishilgan;

4K va 5E ta’lim modellarini “Yandex Maps” hamda “Google Earth” raqamli vositalari bilan integratsiyalash orqali iqtisodiy geografik jarayonlarni hududiy tahlil qilish, xarita va statistik ma’lumotlarni qiyosiy talqin etish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, muammoli vaziyatlarga ilmiy asoslangan yechim ishlab chiqish hamda mustaqil izlanish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asosida aniqlashtirilgan o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlariga oid tavsiyalar PZ-20170929789-sonli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” amaliy loyihasi vazifalarini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 29-oktabrdagi 01/11-25640-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan metodika maktab geografiya fani o‘qituvchilarining metodik faoliyatida foydalanish imkoniyati kengaytirilgan;

“Iqtisodiy zanjir” ta’limiy o‘yini orqali jahon xo‘jaligi tarmoqlari, mamlakatlar va mahsulotlar o‘rtasidagi iqtisodiy geografik bog‘liqliklarni aniqlash, “Mega-shahar arxitektori” o‘yini vositasida urbanizatsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarini cheklangan resurslar sharoitida tahlil qilish hamda optimal yechimlarni ishlab chiqish, “LearningApps” va “Wordwall” platformalari asosida esa interaktiv topshiriqlar, noan’anaviy testlar va tezkor mustahkamlash faoliyatini tashkil etish orqali bilish, amaliy va munosabat komponentlarini kompleks rivojlantirish asosida takomillashtirilgan o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirish metodikasi; maqsadli, mazmunli, tashkiliy-jarayonli va natijaviy-baholash komponentlarini bilish, amaliy hamda munosabat kompetensiyalari bilan funksional bog‘lash, 4K va 5E modellarini pedagogik texnologiyalar, ta’limiy o‘yinlar, raqamli xaritalar va noan’anaviy baholash vositalari bilan integratsiyalash hamda vaziyatli masalalar, loyihaviy topshiriqlar va refleksiv qayta aloqa orqali o‘quvchining iqtisodiy geografik tafakkuri rivojlanishini izchil monitoring qilish asosida takomillashtirilgan iqtisodiy geografiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik modelga doir taklif va tavsiyalardan PZ-20170929789-sonli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” amaliy loyihasi vazifalarini bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 29-oktabrdagi 01/11-25640-sonli ma’lumotnomasi). Natijada geografiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining, xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va faol o‘qitish metodlarini o‘zlashtirishiga hamda ularni geografiya ta’limi jarayoniga samarali tatbiq etish bo‘yicha kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mazmunini yorituvchi jami 14 nomdagi ilmiy ish, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta

metodik qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 maqola, jumladan, 4 respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 192 bet, shundan matn qismi 137 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti hamda predmeti belgilangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. 10-sinf o‘quvchilarining iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilib, ularni ta’lim jarayoniga joriy etish holati, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Geografiya ta’limining ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda O‘zbekistonda geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, xorijda iqtisodiy geografiya ta’limining xususiyatlari, “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari va iqtisodiy geografik kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari kabi masalalar yoritilgan.

Geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanadigan har bir tadqiqotchilar ham fan, ham metodika yo‘nalishida chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhimdir. Ilmiy-tadqiqot faoliyatida mustahkam metodologik bilimga ega bo‘lish, tadqiqot natijalarining dolzarbligini va ahamiyatini oshirish uchun zarurdir.

O‘zbekistonda geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan va borilayotgan tadqiqotlar mazmuniga ko‘ra bir necha yo‘nalishlarda rivojlanib bormoqda. Ushbu tadqiqotlarni to‘rtta yetakchi yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish fan mazmunini yangilash va o‘quv dasturlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Ikkinchi yo‘nalish uslubiy yondashuvlardan iborat bo‘lib, ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar, metodlar, o‘yinlar asosida takomillashtirishdan iborat hisoblanadi.


Uchinchi yo‘nalish ta’lim jarayonida raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash.

To‘rtinchi yo‘nalish ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash hamda monitoring qilish.

O‘zbekistondagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari XX asrning ikkinchi

yarmidan boshlangan va hozirgi kunga qadar muayyan darajada yutuqlarga erishgan. Tadqiqot mavzulari geografiya ta’limi metodikasining turli yo‘nalishlarida oid hisoblanib, har bir dissertatsiya yangi metodologik yondashuvlar, amaliy tajribalar va ilmiy natijalarni taqdim etadi. Hozirgi kungacha 48 nafar tadqiqotchi turli yillarda geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha dissertatsiyalarni himoya qilgan (1-rasm).

O‘zbekistonda geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni 8 ta yo‘nalishga ajratish mumkin. Yo‘nalishlar bo‘yicha eng ko‘p ishlar “Tabiiy geografiyani o‘qitish metodikasi” va “Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o‘qitish metodikasi” bo‘yicha olib borilgan (jami ishlarning 60,5 % i). “Geografiya ta’limida fanlararo integratsiya”, “Geografiya ta’limida kartografiya”, “Geografiya ta’limida ekologiya va o‘lkashunoslik”, “Geografiya o‘qituvchilarining malakasini oshirish” kabi yo‘nalishlardagi tadqiqot ishlari soni 9 tadan iborat. Shuningdek, istiqbolli hisoblangan “Geografiya ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” (7 ta) va “Geografiya ta’limida pedagogik texnologiyalar” (3 ta) yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlarining salmog‘i ancha ortganligini ko‘rish mumkin.



1-rasm. O‘zbekistonda geografiya ta’limi metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari dinamikasi

Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida maktab geografiya ta’limi mamlakatlar, mintaqalar va butun dunyo bo‘ylab geografik hududlarni o‘rganadilar. Bu mintaqalar tabiati, iqtisodiyoti, madaniyati hamda aholisi haqida geografik bilimlar oladi. Mamlakatlar va mintaqalarga qarab, o‘quv dasturlarida mahalliy hamda milliy geografiya mavzulariga katta e’tibor qaratiladi. Shuningdek, suv, havo, tuproq, biologik resurslarni o‘rganadi, ulardan barqaror foydalanish va ekologik muammolar haqida bilim olishadi. Bu masalalar ko‘plab mamlakatlarning geografiya fanida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, geografiya fani o‘quvchilarga dunyoqarashini kengaytirish, turli madaniyatlar bilan tanishish va global hamjamiyat bilan bog‘lanish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni beradi.

Dunyo mamlakatlarida geografiya fanini o‘qitishni uchta guruhga ajratish mumkin. Ushbu guruhlar asosan mintaqa va mamlakatlarning milliy ta’lim tizimlari hamda geografiya fanining o‘quv dasturidagi o‘rniga qarab farqlanadi. Uning asosiy mazmuni quydagilarni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. Dunyo mamlakatlarida geografiya fanini o‘qitish guruhlari

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning fanga oid kompetentligini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani o‘quvchilarda iqtisodiy geografik tafakkurni shakllantirish, hududiy jarayonlarni tahlil qilish va global muammolarga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi.

Iqtisodiy geografik kompetentlik – bu o‘quvchilarning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning hududiy xususiyatlarini tahlil qilish, mintaqaviy tafovutlarning sabab va oqibatlarini aniqlash, geografik ma’lumotlarni izohlash hamda mavjud muammolarga ilmiy asoslangan yechimlar taklif eta olishga xizmat qiluvchi bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy faoliyat tajribasining integrativ majmuidir. Mazkur kompetentlik zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, geografik xaritalar, statistik ma’lumotlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish asosida rivojlantiriladi.

Iqtisodiy geografik tafakkur - o‘quvchining iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni hududiy jihatdan idrok etishi, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashi, mintaqaviy tafovutlarni baholashi hamda aniqlangan muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqish qobiliyatidir.

Iqtisodiy geografik tafakkur esa ushbu kompetentlikning yuqori namoyon bo‘lish shakli sifatida o‘quvchining iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni hududiy jihatdan idrok etishi, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini mustaqil aniqlashi va ilmiy asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalaydi.


Tadqiqot ishining ikkinchi bobi “**Iqtisodiy geografiya ta’limida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning metodik asoslari (“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani misolida)”** deb nomlangan. Unda iqtisodiy geografiya fanini o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ta’limiy o‘yinlar, noan’anaviy test turlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan, shuningdek o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit metodik model ishlab chiqilgan.

5E ta’lim modeli konstruktivistik yondashuvga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini izlanish, tahlil va amaliy faoliyat orqali

tashkil etishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik model hisoblanadi. Ushbu model o‘quv jarayonini besh bosqich asosida izchil tashkil etadi hamda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, muammoni hal qilish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

4K modeli - ta’lim jarayonida o‘quvchilarning fan bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Ushbu model, ta’limni yanada samarali, qiziqarli va amaliy qilish maqsadida quydagi to‘rtta asosiy komponentlardan iboratdir: *critical thinking (tanqidiy fikrlash), communication (muloqot), collaboration (hamkorlik), creativity (ijodkorlik).*

Geografik o‘yinlarni turlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Geografik o‘yin turlari.


“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalar va ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishda muhim metodik omil hisoblanadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, murakkab iqtisodiy geografik tushunchalarni sodda va interfaol shaklda o‘zlashtirish, xarita, jadval, diagramma hamda statistik ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning bilish faolligini oshirib, ularni iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, mamlakatlar va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash, sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish hamda mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltiradi.

Ushbu dasturiy ilova maktab geografiya ta’limi uchun eng muhim vositalardandir. Uning yordamida Yer yuzasi va uning qismlarini yirik mashtabda namoyish etish imkoniyatining mavjud. Umuman olganda ushbu **“Yandex Maps”** dasturi katta masofadan yagona kompozit tasvir yordamida sayyora yuzasini aks ettiradigan raqamli globus sifatida namoyish etiladi. Keyin esa ushbu obyektlarni ham tabiiy ham siyosiy va iqtisodiy xaritalaridan foydalanish mumkin. Kerakli obyektni kattalashtirish orqali ko‘rish imkoniyati yaratiladi va Yer sharining aynan ko‘rinishini, bo‘rttirma va 3D o‘lchamli ko‘rinishda tasvirlaydi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarida geografiya fanini o‘qitishda **“Google Earth”** dasturiy ilovasidan foydalanish va ta’lim amaliyotiga joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu ilovada sun’iy yo‘ldosh orqali olingan butun Yer yuzasining fotosuratlardan iborat tasvirlari joylashtirilgan. Unda Yer sharining aynan ko‘rinishini, bo‘rttirma va 3D o‘lchamli ko‘rinishda tasvirlaydi.

LearningApps - bilimlarni sinash va interaktiv mashqlarni yaratish imkonini beruvchi onlayn platforma bo‘lib, u o‘qitish, o‘rganish jarayonlarini multimedia va interaktiv modullar yordamida qo‘llab-quvvatlaydi. Platforma keng turdagi didaktik vositalar, jumladan, testlar, mantiqiy zanjirlar, to‘ldirish mashqlari kabi o‘quv modullarini o‘z ichiga oladi. Foydalanuvchilar tayyor o‘quv materiallarini osongina kiritishlari yoki o‘zlari yangi modullar yaratib, ularni moslashtirish imkoniyatiga ega. Har bir mashq uchun alohida havola va QR-kod yaratiladi, bu esa ulardan keng doirada foydalanishga imkon beradi. Bu platforma o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol o‘zaro aloqani kuchaytirib, o‘quv jarayonini jonlantiradi hamda o‘ziga xos qilib yaratadi.

“LearningApps” platformasi o‘zida 20 dan ortiq o‘quv modullarini jamlagan. Ular quydagilar: juftlarni toping, tasniflash, xronologik jadval, oddiy buyurtma, matn kiritish, rasmlarni saralash, to‘p tanlovli viktorina, bo‘shliqlarni to‘ldiring, audio-video kontent, “kim millioner bo‘lishni xohlaydi”, topishmoq, boshqotirma, filvord, bu qayerda joylashgan, tahminlovchi so‘zlar, jadvalni to‘ldiring, xat yozish jadvali, op poygasi kabilardan iborat (4-rasm).



4-rasm. “Aholisi eng ko‘p davlatlar” topshirig‘ining yakuniy javoblari


Wordwall. Bu dasturiy ilova o‘quv jarayonini olib borish, masofaviy va aralash ta’lim uchun xizmat qiladigan universal onlayn dasturiy ilova hisoblanadi. Unda o‘qituvchiga turli fanlar, jumladan geografiya ta’limi uchun interfaol mashqlar, krossvordlar, viktorinalar, flesh kartalar, javoblarni moslashtirish, bo‘sh joylarni to‘ldirish kabi interaktiv mashqlar va shablonlari mavjud (5-rasm).



5-rasm. “Wordwall” dasturiy ilovasidagi “Tasodifiy g‘ildirak” o‘quv topshirig‘i

Mobil ilova (Geografiya-10). Hozirgi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish darajasi o‘smoqda. Ayniqsa ta’lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatining oshishiga va ma’lumotni chuqur o‘rganib olishiga yordam beradi. Bu borada mobil ilovalardan foydalanish ta’limda juda katta qulayliklar yaratadi.

Geografiya fanini o‘qitishda ilmiy-pedagogik modellashtirish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali o‘qituvchilar ta’limni turli kontekstlarda yanada aniq va tushunarli qilish uchun ilmiy model va yondashuvlarni ishlab chiqadilar. Iqtisodiy geografiya ta’limidagi ilmiy bilimlarni o‘rganish, o‘quvchilarning dunyoqarashni kengaytirish va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy-pedagogik modellashtirish o‘qituvchilarni pedagogik uslublarini yangilashga, o‘quv materiallarini o‘zgartirishga va ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olishga imkon beradi. Bu yondashuv shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni osonlashtiradi, ta’limda innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi va o‘quv jarayonining interaktivligini oshiradi. Geografiya o‘qitishda ilmiy modellashtirish, shuningdek, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash, murakkab geografik masalalarni tushunishga yordam berish va ularni real dunyo masalalari bilan bog‘lashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi (6-rasm).



6-rasm. O‘quvchilarning iqtisodiy geografik kompetentligini rivojlantirishning takomillashtirilgan metodik modeli

Tadqiqot ishining uchinchi bobi **“Fanni o‘qitishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning statistik tahlili”** deb nomlangan. Unda tajriba-sinov ishlarni tashkil etish, o‘tkazish, ularning tahlili va samaradorlik ko‘rsatkichlarining tahlili amalga oshirilgan. Ma’lumki, pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishi ikki qismdan iborat: nazariy tadqiqot va tajriba-sinov ishlari. Tajriba-sinov ishlari esa nazariy gipotezaning to‘g‘riligini amaliyotda sinab ko‘rishga qaratilgan bo‘lib, ushbu jarayon davomida olingan natijalar matematik va statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. Shu tariqa, nazariy va amaliy bo‘limlar tadqiqotning mantiqiy yaxlitligini ta’minlaydi.

Pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy ikki qismdan iborat: nazariy tadqiqot va tajriba-sinov ishlari. Nazariy tadqiqotda fan sohasi bilan bog‘liq muammoning nazariy jihatlari o‘rganilib, uning dolzarbligi va zarurati asoslanadi. Shu bilan birga, umumiy pedagogik asoslar yoritiladi, ilmiy gipotezaning tavsifi keltirilib, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar va talablar ishlab chiqiladi. Pedagogikaning nazariy tamoyillariga asoslanib, muammoning yechimiga qaratilgan ilmiy yondashuv va muallifning ilmiy farazi izchil bayon qilinadi. Tadqiqotning nazariy qismi muammo, uning yechimlari va ilmiy tahlilga qaratilgan tadqiqot mazmunini o‘z ichiga oladi. Tajriba-sinov ishlari esa nazariy gipotezaning to‘g‘riligini amaliyotda sinab ko‘rishga qaratilib, ushbu jarayon davomida olingan natijalar matematik va statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. Shu tariqa, nazariy va amaliy bo‘limlar tadqiqotning mantiqiy yaxlitligini ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqot ishining ilmiy farazi sifatida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtisodiy geografiya kurslarini o‘qitishni takomillashtirish va o‘quvchilarning iqtisodiy geografik tafakkurini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni geografiya ta’limiga tatbiq etishning amaliy mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, didaktik va metodik ta’minotni takomillashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Tajriba-sinov ishlari uchun Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi 22-maktab, Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi 19-maktab va Andijon viloyati Andijon tumanidagi 33-maktabdan jami 353 nafar o‘quvchi tanlab olindi. Ushbu o‘quvchilar sinov-tajriba guruhi (163 nafar) va nazorat guruhi (190 nafar)ga teng taqsimlandi.

Tajriba-sinov jarayonida maktabda bir qator muhim yo‘nalishlar inobatga olindi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” faniga oid kompetensiyalarini shakllantirish darajalari aniqlanib, ushbu fan bo‘yicha qiziqishlarini oshirishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ularni muammolarni tushunib yetish, ularga yechim taklif qilish hamda jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun shaxsiy mas’uliyatni his qilishga o‘rgatish jarayonlari tashkil etildi.

